

**О'ZBEKISTONDA SHAXMATNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA
OMMALASHTIRISH.**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

MSF 55-21 guruh magistranti

Bekbo'tayeva Salimaxon

Annotatsiya: SPORT (ing. sport — o'yin) — jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi, jismoniy tarbiya vositasi va usuli, jismoniy mashqlarniit turli majmualari bo'yicha musobaqalar tashkil etish, tayyorlash va o'tkazish tizimi. Sportning maqsadi kishilarning sog'lig'ini mustahkamlash va umumiy jismoniy rivojlantirish bilan birga Sport musobaqalarida yuqori natija va g'alabalarga erishishdir.

Annatation: SPORT (eng. sport - game) is a component of physical culture, a means and method of physical training, a system of organizing, preparing and conducting competitions in various complexes of physical exercises. The goal of sports is to strengthen people's health and general physical development, as well as achieving high results and victories in sports competitions.

Kalit so'zlar: grossmeyster, shatranj, jonkuyarlik, murabbiylar, grossmeyster, rivojlantirish, shaxmatchi oila:

Keywords: grandmaster, chess, passion, coaches, grandmaster, development, chess family:

O'zbekiston zaminida shaxmat chuqur ildiz otganini tasdiqlovchi manbalar mavjud. 1972-yilda Dalvarzintepa (Surxondaryo)da olib borilgan arxeologik qazilmalar vaqtida Kushon davri (1—2-asrlar)ga oid shaxmat donalari, 1977-yilda Afrosiyob (Samarqand)da o'tkazilgan tadqiqotlar chog'ida

7—8-asrlarga taalluqli 7 ta shaxmat donasi topilgan. 9-asrda yashagan arab olimi va shatranjchisi al-Adliyning yozishicha, shatranjdagi inson tafakkurini cheklagan shashxoldagi xollarning tushishiga qarab yurish shashxolning bekor qilinishi va bu o‘yinning rivojlanishida O‘rta Osiyo xalqlari muhim rol o‘ynagan. Abu Rayhon Beruniyning „Hindiston“, Abdurazzoq Samarqandiyning „Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn“, Alisher Navoiyning „Majolis unnafois“, „Lison uttair“, Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ va boshqalar tarixiy asarlarda shaxmat (shatranj)ga oid qimmatli ma‘lumotlar bor. Amir Temur davrida quchli shatranjchilar Samarqandda to‘planishgan. Tabrizlik Ali ash-Shatranjiy (Oloviddin at-Tabriziy) Samarqandda o‘tkazilgan musobaqalarda g‘olib chiqqan. Shatranj haqida kitob yozib, unga o‘zining va 14-asrgacha O‘rta Osiyoda yashagan ko‘plab oliya (grossmeyster)larning mansubalarini kiritgan. Amir Temurning o‘zi bilan ham shatranj o‘ynab turgan.

20-asrning 20-yillaridan O‘zbekistonda shaxmatning zamonaviy qoidalari keng targ‘ib etilishi bu sport turining rivojlanishiga turtki berdi. Toshkent, Samarqand, Qo‘qon va boshqalar shaharlarda shaxmat to‘garaklari ochildi. Azmiddin Xo‘jayev, Sergey Freyman, Po‘lat Saidxonov, Zokir Xo‘jayev kabilar shaxmatni targ‘ib etishda jonkuyarlik ko‘rsatishdi. 1930-yildan erkaklar, 1935-yildan ayollar o‘rtasida O‘zbekiston chempionatlari o‘tkazila boshlagan (Aleksandr Grushevskiy va Larisa Pinchuk eng ko‘p — 8 martadan chempion bo‘lishgan). Turli davrlarda Fyodor Duz-Xotimirskiy, Salo Flor, Tigran Petrosyan, Paul Keres, Aleksandr Kotov, Mark Taymanov, Viktor Korchnoy, Anatoliy Karpov kabi taniqli grossmeysterlarning O‘zbekistonga kelib, ma‘ruzalar o‘qishi, bir yo‘la o‘yin (seans)lar o‘tkazishi, musobaqalarda qatnashishi mamlakatimiz shaxmati rivojiga samarali ta‘sir etdi. 20-asrning 50-yillaridan boshlab Mamajon Muhitdinov, Ulug‘bek Elbekov, Sergey Pinchuk, Roman Kim, Alla Mkrtyuchan kabi shaxmat jonkuyarlarining yangi avlodi voyaga yetdi. Respublika shaxmat-shashka klubi foydalanishga topshirildi, turli toifadagi musobaqalar o‘tkazila boshlandi, gazeta va jurnallarda shaxmat ruknlari, O‘zbekiston televideniyesida shaxmat ko‘rsatuvi ochildi, shaxmatga

oid kitoblarni nashr etish yo‘lga qo‘yildi. Isaak Birbrager, Yefim Ruxlis kabi shaxmat kompozitorlari turli tanlovlarda g‘olib chiqishdi. Georgiy Borisenkoga sirtqi shaxmat bo‘yicha xalqaro grossmeyster unvoni berildi. Georgiy A‘zamov esa O‘zbekistondan yetishib chiqqan 1-xalqaro grossmeyster bo‘ldi (1984).

1992-yilda O‘zbekiston erkaklar terma jamoasi jahon shaxmat olimpiadasida 2-o‘rinni egalladi, 1999-yilda esa Osiyo chempionatida g‘alaba qozondi. 1998-yilda [Ibrohim Hamroqulov](#) o‘smirlar o‘rtasida jahon birinchiligida g‘olib chiqdi. [Rustam Qosimjonov](#) 1998-yilda Osiyoning birinchi, 2004-yilda esa jahonning 17-chempioni bo‘ldi.

Nufuzli musobaqalarda yuqori natijalar ko‘rsatgani uchun FIDE O‘zbekistonlik quyidagi shaxmatchilarimizga xalqaro grossmeyster unvonini berdi: [Valeriy Loginov](#), [Aleksandr Nenashev](#), [Grigoriy Serper](#), [Sergey Zagrebelniy](#), [Saydali Yo‘ldoshev](#), [Aleksy Barsov](#), [Mixail Saltayev](#), [Rustam Qosimjonov](#), [Rena Mamedova](#), [Shuhrat Safin](#), [Marat Jumayev](#), [Dmitriy Qayumov](#), [Timur Gareyev](#). Bir necha shaxmatchi va murabbiylar O‘zbekiston Respublikasining faxriy unvoni va orden-medallari bilan mukofotlanishdi. Mamlakatda bolalar va yoshlar o‘rtasida ham shaxmatni rivojlantirishga katta e‘tibor berilyapti. Shaxmat „Umid nihollari“, „Barkamol avlod“, universiada musobaqalari dasturiga kiritilgan. O‘zbekistonlik yosh shaxmatchilar bolalar-o‘smirlar o‘rtasida o‘tkazilayotgan xalqaro musobaqalarda sovrinli o‘rinlarni egallab kelishyapti.

14 yanvar kuni «Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi prezident qarori e‘lon qilingandi. Qaror ijrosi uchun mas‘ul hisoblangan bosh vazir o‘rinbosari Aziz Abduhakimov shaxmatni rivojlantirish bo‘yicha mazkur prezident qarori asosida amalga oshiriladigan ishlar xususida Kun.uz'ga ma'lumot berdi.

Prezident qarorida shaxmatni 2025 yilgacha rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Agar bu vazifalar amalga oshirilsa, mamlakatda shaxmat bilan bog'liq vaziyat mutlaqo yangicha tus oladi. Hozirda O'zbekiston Xalqaro shaxmat federatsiyasi (FIDE) reytingida 162 davlat ichida 32-o'rinni egallab turibdi. Qarorga ko'ra, bu reytingda 2025 yilda yuqori o'nlikka kirish vazifasi qo'yilgan. Ayni damda mamlakatda xalqaro grossmeysterlar soni 22 nafarni tashkil etadi. 3 154 kishi shaxmat bilan professional darajada shug'ullanadi va ulardan 580 nafari ayollar. 2025 yilga qadar mamlakat aholisining 3 foizi shaxmat bilan muntazam shug'ullanishiga erishish ko'zda tutilmoqda. Shaxmat maktablari va klublari faoliyatiga ko'mak berish maqsadida Shaxmat klublari assotsiatsiyasi tashkil etiladi. Jismoniy tarbiya va sport universitetining Farg'ona filialida shaxmat bo'yicha ta'lim yo'nalishi ochiladi. Shuningdek, Shaxmatni ommaviylashtirish va rivojlantirish jamg'armasi tashkil etiladi. Respublikadagi 150 ta maktab shaxmatga ixtisoslashtiriladi va o'quvchilarni chuqurlashtirilgan holda shaxmatga o'qitish yo'lga qo'yiladi. Bundan tashqari, 1 000 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida jismoniy tarbiya fani doirasida 18 soat shaxmat darslari joriy etiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari o'rtasida sinf toifasidan kelib chiqib (1-4 sinf, 5-9 sinf, 10-11 sinf) o'quvchilar o'rtasida tuman/shahar, viloyat va respublika darajasida turnirlar tashkil etilib, yaxshi natijalarni ko'rsatgan qatnashchilarning xalqaro turnirlardagi ishtiroki ta'minlanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, maktab o'quvchilari va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari o'rtasida har yili shaxmat bo'yicha respublika birinchiligini o'tkazish yo'lga qo'yiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda bittadan – jami 14 ta tuman/shaharda shaxmat qo'shimcha sport turi sifatida rivojlantiriladi. Shaxmat yo'nalishida o'qiydigan talabalar Xalqaro shaxmat

akademiyasida amaliyot o'taydi. Qaror ijrosida oliy ta'lim muassasalarida shaxmat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning Xalqaro shaxmat akademiyasida amaliyot o'tashini tashkil etish rejalashtirilgan. Iqtidorli kadrlarni saralab olish jarayonini qulaylashtirish maqsadida shaxmat bo'yicha tahsil olayotgan o'quvchilar, talabalar, o'qituvchilar va murabbiylarning yagona elektron bazasi yaratiladi. Bundan tashqari, 2021 yil 1 maygacha uzchess.uz – shaxmat bo'yicha musobaqalar va turnirlarni onlayn o'tkazish platformasi ishga tushiriladi.

Rustam Qosimjonov xalqaro turniri tashkil etiladi. Shaxmatga qiziqishni oshirish maqsadida xalqaro darajadagi musobaqalarni tashkillashtirish ham ko'zda tutilgan. Xususan, shaxmat bo'yicha XVII Jahon chempioni Rustam Qosimjonov xalqaro turnirini o'tkazish yo'lga qo'yiladi. Unda dunyoning yuqori reytingli shaxmatchilari ishtiroki ta'minlanadi. Shu jumladan, Toshkent shahrida O'zbekiston prezidenti sovrini uchun xalqaro shaxmat turniri, o'zbekistonlik birinchi xalqaro grossmeyster Georgiy Agzamov xotirasiga bag'ishlangan xalqaro turnir ham o'tkaziladi. Shuningdek, Samarqand va Xiva shaharlarida ham xalqaro darajadagi musobaqalar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Har yili an'anaviy tarzda tuman/shahar rahbarlari, viloyat rahbarlarining kubogini o'tkazish orqali shaxmatchilar zaxirasi shakllantiriladi. Shaxmat bo'yicha musobaqalar g'oliblari pul mukofoti oladi. Har yili imkoniyati cheklangan shaxmatchilar orasida O'zbekiston birinchiligi uchun alohida musobaqalar tashkil etiladi, bu sportchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Shaxmat bo'yicha respublika hamda xalqaro musobaqalar va olimpiadalar g'oliblari, xalqaro grossmeyster, xalqaro toifadagi sport ustasi, xalqaro unvonlarga ega bo'lgan murabbiy [yoki hakam] unvonini qo'lga kiritgan shaxmatchilar pul mukofoti bilan taqdirlanadi. Bundan tashqari iste'dodli shaxmatchilar Xalqaro shaxmat akademiyasiga tavsiya qilinadi. Mahalla bolalari o'rtasida har yili yozgi ta'til kunlarida «Mahalla

kubogi» respublika musobaqasi tashkil etiladi. Unda yaxshi natija ko'rsatgan shaxmatchilarni kelajakda imkoniyatlarini rivojlantirish uchun Xalqaro shaxmat akademiyasiga tavsiya qilish tizimi yo'lga qo'yiladi. Oilalarning jamoaviy tarzda ishtirok etishini ko'zda tutuvchi «Shaxmatchi oila» turnirlari mahallalar doirasida tashkil etiladi. Bundan tashqari, shaxmatga bo'lgan ishtiyoqni vizual muhit orqali kuchaytirish ham rejalashtirilgan. Buning uchun xiyobonlar va saylgohlar hududlarida katta shaxmat maydonchalarini barpo etish, shaxmat donalarini turli animatsion qahramonlar ko'rinishida tasvirlash takliflari ilgari surilmoqda.

Bu sport turiga qaratilayotgan e'tibor kundan kunga natijasini kursata boshladi bunga misol qilib 2022 yilgi shaxmat olimpiadasi tartib bo'yicha 44-bo'lib Hindistonning Chennay shahrida bo'lgan musobaqada yosh shaxmatchilarimiz O'zbekiston milliy jamoasi ilk bor shaxmat olimpiadasi chempioni bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. PF-5368-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqa-ruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
2. 2017-yil 3-iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori
3. "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 15-fevral-dagi Farmoni
4. Yarashev X.D. Ommaviy sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va xalq milliy o'yinlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash; 2007.
5. Kainova E.B. Jismoniy tarbiya va sportning umumiy pedagogikasi: o'quvqo'llanma / E. B. Kainova. - M.: FORUM, 2007
6. Jismoniy madaniyat va sport pedagogikasi: darslik /
7. <https://journals.sagepub.com/>
8. <https://www.scopus.com/>